



BOSH MIYA SARATONINI DAVOLASHDA ISHLATILADIGAN DORI VOSITALARINING KIMYOVIY TARKIBI

QIRGIZOV SHAHOBDIN MIRZARAIMOVICH

Andijan davlat universiteti professori, kimyo fanlari doktori

JURABOYEV ABROR

Andijan davlat universiteti kimyo mutahassisligi ikkinchi bosqich
magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7809934>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26- mart 2023 yil

Ma'qullandi: 01-april 2023 yil

Nashr qilindi: 08-april 2023 yil

KEY WORDS

*bosh miya saratoni, metastaz,
temozolomide, vincristin,
paklitaksel.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada bosh miya saratonini kelib chiqishi va rivojlanishiga sabab bo'ladigan omillar keng yoritilgan. Shuningdek, uni davolashda ishlatiladigan dori vositalarining kimyoviy tarkibi va zararli oqibatlari yoritilgan.

Dunyo bo'yicha ma'lumotlarga qaraganda bosh miyaning birlamchi o'smasi kam uchrab, ko'pincha u ikkilamchi, ya'ni boshqa muxim a'zolar o'smalaridagi metastazlar xolida kuzatiladi. Birlamchi miya saratoni yosh bolalarda uchraydi. Bosh miya saratonining bir nechta turlar bor. Bular nevrinoma (bosh miya nervlaridan rivojlanadi) va meningioma (bosh miya pardalari o'smasi) bo'lishi mumkin (1-jadval).

1-jadval

Bosh miya saratoni sabablari va uni rivojlanishiga olib keluvchi omillar




Saratoni rivojlanishini qo'zg'atuvchi omillar	Saratoni rivojlanishiga olib keluvchi genetik omillar
Bosh miya shikastlari	Sindrom Turko
Turli infeksiyalar	Sindrom Li-Fraumeni
Radiatsiya	Neyrofibromatoz
Kanserogen vositalar bilan kontakt: ximiya, og'ir metallar, bo'yoqlar	Burnevil kasalligi

Ayrim olimlarning fikricha muntazam ravishda va uzoq uyali telefonda gaplashuvchi insonlarda bosh miya saratoni rivojlanishi extimoli yuqori bo'ladi. Bosh miya saratoni ilk belgilari: Bosh miya o'smasini joylashgan o'rnini faqat MRT aniq baxolaydi. Bosh miya saratonining belgilari xilma-xil, ko'p xolda boshqa kasalliklar belgilarini eslatgani uchun tashxislash qiyin bo'ladi. O'sma belgilari bosh miyaning qaysi qismida joylashgan o'rniga bog'liq: Peshona soxasida joylashganda: tayanch-xarakat apparati faoliyati va muvozanatni boshqarish buziladi. Undan tashqari, bemorda ruxiyatini buzilishi, o'zini noadekvat tutishi, xarakatini sekinlashuvi, «tormozlanishi» va epileptik xurujlar kuzatiladi. Kuyidagi 2 chi jadvalda bosh miya saratonini davolashda ishlatiladigan dori vositalari nomi va kimyoviy

tarkibi keltirilgan.

2-jadval

Bosh miya saratonini davolashda ishlatiladigan dori vositalar va ularning kimyoviy tarkibi

Nomi	Kimyoviy nomi	Kimyoviy tarkibi
Temozolomid	4-methyl-5-oxo-2,3,4,6,8-pentazabicyclo[4.3.0]nona-2,7,9-triene-9-carboxamide	
Vincristin	metil-(3aR,4R,5S,5aR,10bR,13aR)-4-atsetoksi-3a-etil-9-((5S,7R,9S)-5-etil-5-gidroksi-9-(metoksikarbonil)-1,4,5,6,7,8,9,10-oktagidro-2H-3,7-metano-azatsiklo-undetsino (5,4-b) indol-9-il)-5-gidroksi-8-metoksi-6-okso-3a,4,5,5a,6,11,12,13a-oktagidro-1H-indolizino(8,1-cd) karbazolo-5-karboksilat sulfat	
4-Gidroksitsiklofosfamid	2-[bis(2-xloretil)amino]-4-gidroksi-2H1,3,2-oksazafosfinan-2-on	

Yuqoridagi dorilarni ichish natijasida Yurak qon tomirlari tizimi muozanati buzilishlari (gipovolemiya, gipokaliemiya, giponatriemiya); metabolik alkalozni kuchayishi. Bundan tashqari ongni chalkashishi, trombozlar, yurak ritmini buzilishi, stenokardiya, o'tkir miokard infarkti, sinkope rivojlanishi bilan kardial va serebral ishemiya kuzatilishi mumkin. Markaziy nerv tizimi tomonidan esa bosh og'rig'i, bosh aylanishi, kuchli toliqish, mushaklarni tirishishi. Immun tizimi tomonidan esa allergik reaksiyalar, shu jumladan toshmalar, qichishish, ekzantema, fotosezuvchanlik, og'ir teri reaksiyalariga sabab bo'ladi.

Hozirgi kunda bosh miya saraton kasalligini davolashda tabiiy vositalardan ham foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda xalq tabobatida, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ixtirochi, kimyo fanlari doktori, professor, O'zbekiston "TABOBAT" Akademiyasi raisi. I.R Asqarov tomonidan tavsiya oziq ovqat qo'shilmalar samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi SSV da ro'yhatga olingan shifoi bosim, nishifo, asdavo, askalsiy, antivir 101 kabi tabiiy, biologik faol qo'shimchalarni iste'mol qilish yuqoridagi kasalliklarini davolashda yaxshi samara berib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.R.Asqarov. Sirli tabobat// T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. -2021. -S.1010.
2. И.Р Аскарлов // Табобат қомуси. Мумтоз сўз. Тошкент-2019. –Б.1590.
3. И.Маматова, М.Мамарахмонов, И.Р Аскарлов // Изучение химического состава пищевой добавки «Мажмуи Рахмоний» физико-химическими методами исследования. Universum: химия и биология. 2020. №1 (67).–С. 45-45.
4. М.М.Мо'минjonov // Qovunning shifobaxsh xususiyatlari. Xalq tabobati jurnali. 2021 y. T. №7. B.27.

